

MODERN CONCEPTS OF ASSESSING THE EFFICIENCY OF PUBLIC ADMINISTRATION

MOKHIDOV JAVLONBEK OTKIRBEK OGLI

Faculty of Social Sciences, National University of Uzbekistan

Student of the “Political Science” major

Anotation: This article explores modern theoretical and methodological foundations and concepts for assessing the effectiveness of public administration. The study analyzes the issues of measuring management quality in the context of "New Public Management", "Good Governance", and digital transformation. Furthermore, based on international indicators (WGI, EGDI), the features of evaluating the activities of the state apparatus are highlighted, and scientific proposals for improving administrative efficiency are put forward. Specifically, the mechanisms for reducing the human factor in public service delivery and transparent monitoring of performance outcomes form the core of the article.

Keywords: Public administration, efficiency, Good Governance, KPI, civil service, digital government, international rankings, administrative reforms, performance audit.

DAVLAT BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA OID ZAMONAVIY KONSEPSIYALAR

MOXIDOV JAVLONBEK O'TKIRBEK O'G'LI

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

“Siyosatshunoslik” yo'nalishi talabasi.

Anotatsiya: Ushbu maqolada davlat boshqaruvi samaradorligini baholashning zamonaviy nazariy-uslubiy asoslari va konsepsiyalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida "New Public Management", "Good Governance" va raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv sifatini o'lchash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro indikatorlar

(WGI, EGDI) asosida davlat apparati faoliyatini baholashning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan hamda boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan. Ayniqsa, davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilini kamaytirish va natijadorlikni shaffof monitoring qilish mexanizmlari maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Tayanch so'zlar: Davlat boshqaruvi, samaradorlik, Good Governance, KPI, davlat xizmati, raqamli hukumat, xalqaro reytinglar, ma'muriy islohotlar, natijadorlik auditi.

Аннотация: В данной статье исследуются современные теоретико-методологические основы и концепции оценки эффективности государственного управления. В ходе исследования проанализированы вопросы измерения качества управления в условиях "New Public Management", "Good Governance" и цифровой трансформации. Также на основе международных индикаторов (WGI, EGDI) освещены особенности оценки деятельности государственного аппарата и выдвинуты научные предложения по повышению эффективности управления. Особое внимание уделено механизмам снижения человеческого фактора при оказании государственных услуг и прозрачному мониторингу результативности.

Ключевые слова: Государственное управление, эффективность, Good Governance, KPI, государственная служба, цифровое правительство, международные рейтинги, административные реформы, аудит результативности.

KIRISH

Zamonaviy davlat qurilishining ustuvor yo'nalishlaridan biri davlat boshqaruvi apparati faoliyatini tubdan isloh qilish va uning samaradorligini baholashning shaffof mexanizmlarini joriy etishdan iboratdir. Globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining shiddatli kirib kelishi natijasida an'anaviy byurokratik modellar o'zining moslashuvchanligini yo'qotmoqda, bu esa boshqaruvda "natijadorlik" va

"ijtimoiy mas'uliyat" tushunchalarini birinchi planga olib chiqmoqda. Davlat boshqaruvi samaradorligini baholash nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki byudjet mablag'larining sarflanishi, balki jamiyatning davlat institutlariga bo'lgan ishonchi hamda hayot sifatining yaxshilanishi bilan o'lchanadigan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyil davlat siyosatining o'zagiga aylandi. So'nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar va raqamli hukumat tizimining rivojlanishi davlat xizmatchilari faoliyatini baholashning yangi mezonlarini belgilab berdi. Ushbu maqolada davlat boshqaruvi samaradorligini baholashning xalqaro metodologik asoslari tahlil qilinadi hamda milliy boshqaruv tizimini takomillashtirish, korrupsiyani jilovlash va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va mulohazalar ilgari suriladi.

ASOSIY QISM: DAVLAT BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Davlat boshqaruvini samradorligi va uni baholash hozirgi rivojlanayotgan zamonda dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Bunga sabab qilib ba'zi siyosatshunoslar globallashuv va yangi head-hunting tizimlari kuchayib borayotganligini sabab qilib ko'rsatishmoqda. Shuningdek, Davlat boshqaruvi samaradorligini baholashning nazariy evolyutsiyasi klassik iyerarxik modellardan natijaga yo'naltirilgan zamonaviy konsepsiyalarga qarab rivojlanib kelmoqda. Ushbu jarayonda Kristofer Hud tomonidan asos solingan "Yangi davlat boshqaruvi" konsepsiyasi fundamental burilish yasadi[1]. Mazkur nazariya davlat sektoriga xususiy biznes boshqaruv usullarini olib kirishni ilgari surib, samaradorlikni baholashda "3E" tamoyilini (Economy - tejamkorlik, Efficiency - unumdorlik, Effectiveness - natijadorlik) asosiy mezon sifatida belgilaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, davlat idoralari faoliyati faqat protseduralarga rioya qilish bilan

emas, balki erishilgan aniq miqdoriy ko'rsatkichlar va KPI (Key Performance Indicators) tizimi orqali o'lchanishi lozim.

Keyingi bosqichda samaradorlik tushunchasi mazmunan kengayib, Jahon banki va BMT tomonidan ilgari surilgan "Ezgu boshqaruv" konsepsiyasi bilan boyitildi. Bu nazariya boshqaruv samaradorligini faqat iqtisodiy raqamlar bilan emas, balki jarayonning sifati ya'ni ochiqlik, hisobdorlik, korrupsiyadan xolilik va qarorlar qabul qilishda fuqarolarning ishtiroki bilan bog'laydi. Ushbu modelga ko'ra, agar davlat qarori ijtimoiy adolatga xizmat qilmasa, u qanchalik kam xarajatli bo'lmasin, samarali deb hisoblanmaydi. Bu esa boshqaruv samaradorligini baholashda sifat ko'rsatkichlarining ustuvorligini ko'rsatadi. Zamonaviy bosqichda esa Mark Mur tomonidan taklif etilgan "Davlat qiymati" nazariyasi markaziy o'rinni egallamoqda[2]. Mazkur konsepsiya boshqaruv samaradorligini baholashda yangicha yondashuvni "davlat tomonidan yaratilgan ijtimoiy foyda" mezonini ilgari suradi. Bunda asosiy e'tibor hukumatning jamiyat ehtiyojlarini qanchalik qondira olayotganiga, fuqarolarning hayotdan qoniqish darajasiga va davlat institutlariga bo'lgan ishonchiga qaratiladi. Shunday qilib, zamonaviy ilmiy nazariyalar boshqaruv samaradorligini baholashni texnik o'lchovlardan ijtimoiy-psixologik va demokratik mezonlar majmuasiga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish va uning samaradorligini baholash masalalari so'nggi yillarda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan konseptual g'oya boshqaruv sifatini o'lchashning yangi demokratik mezonlarini belgilab berdi. O'zbekiston tajribasida boshqaruv samaradorligini baholash tizimi ikki xil yondashuvga asoslanadi: birinchisi - davlat organlarining strategik maqsadlarga erishish darajasi, ikkinchisi - aholining ushbu xizmatlardan qoniqish darajasi. Bu jarayon bevosita 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va ma'muriy islohotlar doirasida tizimlashtirilmoqda.

Hozirgi bosqichda O'zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligini baholashning asosiy mezonlari sifatida quyidagilar belgilangan: KPI (Key Performance Indicators) tizimi orqali har bir vazirlik va idora faoliyatini raqamli monitoring qilish, davlat xizmatlarining raqamlashtirilganlik darajasi hamda murojaatlar bilan ishlash sifati. Vazirlar Mahkamasi va Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (ARGOS) tomonidan joriy etilgan metodikaga ko'ra, boshqaruv samaradorligi "eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari" asosida har chorakda tahlil qilinadi. Bunda nafaqat statistik hisobotlar, balki "E-qaror" va "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" orqali olingan real vaqt rejimidagi ma'lumotlar ham asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, O'zbekistonda boshqaruv samaradorligini baholashda hududiy jihatga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Tuman va shaharlar hokimlarining faoliyati reyting tizimi asosida baholanib, unda tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy soha ko'rsatkichlari asosiy indikatorlar sifatida olingan. Ushbu tizimning joriy etilishi davlat boshqaruvida hisobdorlikni oshirish bilan birga, markaziy va mahalliy ijro hokimiyati organlari o'rtasidagi vertikal bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shunday qilib, milliy baholash tizimi "natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv" tamoyillari asosida takomillashib bormoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasida esa boshqaruv samaradorligini baholash faqatgina statistik hisobotlarga emas, balki yuqori texnologik va tahliliy modellarga tayanadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Singapur) samaradorlikni o'lchashda "Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv" texnologiyasi markaziy o'rinni egallamoqda. Bu texnologiya real vaqt rejimidagi "Katta ma'lumotlar" (Big Data) tahlili orqali davlat dasturlarining natijasini prognoz qilish va baholash imkonini beradi. Xususan, AQSHning "Performance.gov" platformasi barcha federal idoralarning strategik maqsadlarini jamoatchilikka ochiq va onlayn monitoring qilish tizimi bo'lib, u boshqaruvda shaffoflik va hisobdorlikning eng yuqori texnologik

yechimi hisoblanadi. Yevropa mamlakatlarida samaradorlikni baholashda "Balanslashgan ko'rsatkichlar tizimi" (Balanced Scorecard - BSC) metodologiyasi keng qo'llaniladi. Robert Kaplan va Devid Norton tomonidan ishlab chiqilgan ushbu texnologiya davlat tashkilotini to'rtta yo'nalish bo'yicha baholashni nazarda tutadi: moliya, mijozlar, ichki jarayonlar hamda xodimlarning o'sishi va o'rganishi[3]. Ushbu texnologiya davlat idoralariga nafaqat o'tgan davr natijalarini sarhisob qilish, balki kelajakdagi rivojlanish trayektoriyasini belgilash imkonini beradi. Buyuk Britaniya tajribasida esa "Value for Money" texnologiyasi orqali har bir sarflangan funt-sterlingning ijtimoiy qaytimi (ekonomiya, mahsuldorlik va natijadorlik nuqtayi nazaridan) audit qilinadi[4]. Osiyo davlatlari, ayniqsa Janubiy Koreya tajribasida samaradorlikni baholash "Smart Governance" va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan uzviy bog'liq. Bu yerda davlat xizmatlari sifatini baholashda "e-People" kabi portallar orqali fuqarolarning real vaqtdagi fikrlari (sentimental tahlil) avtomatik ravishda tahlil qilinadi[5]. Bunday texnologiyalar boshqaruv subyektlarining faoliyatini inson omilisiz, xolis algoritmik baholashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajribada samaradorlikni baholash texnologiyalari "jarayonni nazorat qilish"dan "natijani optimallashtirish"ga va fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan raqamli ekotizimga aylanib ulgurgan.

XULOSA

Davlat boshqaruvi samaradorligini baholashga oid zamonaviy konsepsiyalarni tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda boshqaruv sifati tushunchasi o'zining an'anaviy iqtisodiy chegaralaridan chiqib, keng ko'lamlı ijtimoiy-siyosiy fenomen darajasiga ko'tarildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, samaradorlik endilikda faqatgina iqtisodiy tejamkorlik bilan emas, balki erishilgan ijtimoiy natijadorlik va eng muhimi - fuqarolarning hayotdan qoniqish darajasi bilan o'lchanmoqda. "New Public Management" modelidan "Good Governance" va "Public

Value" konsepsiyalariga o'tilishi davlat apparatini oddiy nazorat funksiyasidan voz kechib, jamiyat uchun "ijtimoiy qiymat" yaratuvchi servis tuzilmasiga transformatsiya bo'lishiga xizmat qildi. Bunda rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan "Balanced Scorecard" va "Big Data" tahlillari subyektivizmni bartaraf etuvchi hamda boshqaruv qarorlarining xolisligini ta'minlovchi asosiy texnologik drayverlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, mamlakatimizda natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv tizimiga o'tish uchun mustahkam huquqiy va institutsional poydevor yaratib bo'lindi. Biroq, mavjud tizimni yanada takomillashtirish va milliy boshqaruv modelining xalqaro reytinglardagi nufuzini oshirish maqsadida quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- KPI tizimini to'liq raqamlashtirish va avtomatlashtirish: Davlat xizmatchilari faoliyatini baholashda "inson omili" va subyektiv yondashuvlarni butunlay bartaraf etish uchun inson aralashuvisiz ishlaydigan, idoralararo ma'lumotlar almashinuvi asosida shakllanadigan avtomatlashtirilgan onlayn monitoring platformalarini kengaytirish zarur.

- "Qayta aloqa"ning innovatsion mexanizmlarini joriy etish: Davlat organlari faoliyatiga baho berishda qog'ozdagi hisobotlardan voz kechib, mustaqil sotsiologik so'rovlar va ijtimoiy tarmoqlardagi aholi kayfiyatini sun'iy intellekt orqali tahlil qiluvchi "sentimental tahlil" usullarini joriy etish lozim. Bu davlat va jamiyat o'rtasidagi dialogning real manzarasini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, samaradorlikni baholashning zamonaviy metodologiyalarini tizimli ravishda joriy etish nafaqat byudjet mablag'larini optimallashtirishga, balki davlat boshqaruvining xalqchil, shaffof va adolatli tizimga aylanishiga xizmat qiladi. Zero, zamonaviy boshqaruvning pirovard maqsadi kuchli

byurokratiya emas, balki fuqarolarning davlatga boʻlgan yuksak ishonchi va barqaror ijtimoiy taraqqiyotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xud, K. Barcha davrlar uchun davlat boshqaruvimi? "Public Administration" jurnali. London, Buyuk Britaniya: Blackwell Publishing. 1991. 69-jild, 1-son, 3–19-betlar. .
2. Mur, M. G. Ijtimoiy qiymatni yaratish: Davlatda strategik boshqaruv. Kembrij, Massachusetts: Garvard universiteti nashriyoti. 1995. 28–40-betlar.
3. Kaplan, R. S. va Norton, D. P. Muvozanatlashgan koʻrsatkichlar tizimi: Strategiyani harakatga aylantirish. Boston, Massachusetts: Harvard Business Review Press. 1996. 147–160-betlar.
4. Pollit, K. va Bukert, G. Davlat boshqaruvi islohoti: Qiyosiy tahlil – Tejamkorlik davri sari. Oksford, Buyuk Britaniya: Oxford University Press. 2017. 32–45-betlar.
5. Kettl, D. F. Boshqaruv transformatsiyasi: XXI asr uchun davlat boshqaruvi. Baltimor: Johns Hopkins University Press. 2015. 88–104-betlar.